



IQTISODIYOT TUSHUNCHASI VA SHARQ ALLOMALARINING IQTISODIY-TA'LIMIY QARASHLARI

Abdukaxxorova Durdona

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-4800-3220

abduqaxxorovadurdona64@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada iqtisodiyot tushunchasi nima ekanligini, uning kelib chiqishi haqida bilish mumkin. Sharq olimlarining iqtisodiyotga qo'shgan hissalarini haqida ma'lumotlar olishingiz mumkin. Har bir allomalarning yaratgan ta'limotlari va iqtisodiy g'oyalari tahlil qilinadi. Qadimgi davrda iqtisodiyot qanday rivojlanganligi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Oikonomiya, Qadimgi Yunoniston, venchur, ehtiyoj, hokimiyat, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib.

ПОНЯТИЕ ЭКОНОМИКИ И ЭКОНОМИКО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ УЧЁНЫХ

Абдукаххорова Дурдона

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие экономики и её происхождение. Приводятся сведения о вкладе восточных учёных в развитие экономической мысли. Анализируются экономические теории и идеи, созданные каждым из них. Также освещается развитие экономики в древние времена.

Ключевые слова: Ойкономиа, Древняя Греция, венчур, потребность, власть, Абу Райхон Беруни, Абу Али ибн Сино, Юсуф Хос Ходжиб.

THE CONCEPT OF ECONOMICS AND THE ECONOMIC-EDUCATIONAL VIEWS OF EASTERN SCHOLARS

Abdukaxxorova Durdona

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article explores the meaning and origin of the concept of economics. It provides information about the contributions of Eastern scholars to the development of economic thought. The economic theories and ideas created by each scholar are analyzed. The paper also highlights how economics developed in ancient times.

Keywords: Oikonomia, Ancient Greece, venture, need, power, Abu Rayhon Beruni, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Khas Hajib.

Kirish.

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir, - dedi Shavkat Mirziyoyev yig’ilishda. – “Biz yangi O’zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bu bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi esa ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat” (President.uz., 2021). O’zbekiston Respublikasi Ikkinchi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bejiz yuqoridagi misralarni ta’kidlamadilar. Har bir mamlakatning rivojlanishi birinchi o’rinda uning barqaror iqtisodiyotiga bog’liq. Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo’jaligi doirasida ro’y bergan. Shuning uchun qadimgi yunon olimlarining (Ksenofont, Platon Aristotel) asarlarida iqtisodiyot- uy xo’jaligi va uni yuritish qonunlari deb tushuntirilgan. Arab leksionida “iqtisod” tejamkorlik ma’nosida tushunilgan, chunki islom diniga oid adabiyotlarda tejamkorlikka alohida e’tibor berilgan. Masalan, Qur’oni Karimda shunday oyat bor: «Yenglar, ichinglar, hadya qilinglar, ammo isrof qilmanglar” (Razzoqov va boshq., 2002). Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot keng ma’noni anglatib, faqatgina uy yoki individual xo’jalik yuritish yoki tejamkorlik ma’nosini anglatmaydi, balki iqtisodiyot- yirik xususiy xo’jalik, jamoa xo’jaligi, hissadorlik jamiyatlari, davlat xo’jaliklaridan, moliya tizimlaridan, xo’jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, qo’shma korxonalar, davlatlar o’rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlaridan iborat o’ta murakkab ijtimoiy tizimni anglatadi (Shodmonov, G’afurov, 2005).

Adabiyotlar sharhi.

Qadimiy sharqda eramizdan 3000 yillar oldin narsalarni kiraga berish, undan foiz olish, soliq olish kabi kategoriyalar ishlatilgan. Qadimiy Misrliklar, Greklar oldi – sotdi, pul, baho, savdo, foyda, kredit kabi iqtisodiy kategoriyalarni ishlatganlar. O’zbek tilidagi «Iqtisodiyot» tejamkorlik ma’nosini anglatadi va grekcha «Oikonomia» (Ekonomika), ya’ni «Oikoc» - uy, xo’jalik va «nomoc» - qoida, tartib, qonun mazmunini bildiruvchi so’zlar birlashmasidan olingan bo’lib, uy xo’jaligini qonuni, boshqarish mazmunini bildiradi. Shuning uchun ham bo’lsa kerak, iqtisodiy fanlar o’rganadigan kategoriyalar qadimgi Gretsiya, Misr olimlari qalamiga mansub bo’lgan asarlarda uchraydi (Sheila Dow, 2005).

Qur’onning Yusuf surasida berilgan ma’lumotlar bo’yicha eramizdan 3000 yillar oldin Yusuf payg’ambar Misr shoxiga: «Meni shu yerning xazinalari ustiga qo’ying, chunki men (ularni) to’la – to’kis saqlaydigan va (to’g’ri tasarruf qilishni) qilishni biladigan kishiman» deb aytganlar. Bundan kelib chiqadiki, insonlar qadimdan xazinalarni saqlash, sarf qilishni iqtisodiy tomonlarini bilgan. Yana shu narsani aytish joizki, Qur’onning «Taloq» surasida «Olloh barcha narsa uchun miqdor – o’lcham qilib qo’ygandir» deb yozilgan. Qur’onda Meros, sudxo’rlik, sadaqa, omonat, zakot, fitr kabi iqtisodiy kategoriyalar ham ishlatilgan.

Markaziy Osiyo allomalarining asarlarida iqtisodiyotga ta’luqli g’oyalar, xo’jalik yuritish bo’yicha fikrlar ko’pdan ko’p uchraydi. Ularning qatoriga Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos hojib, Amir Temur, Ulug’bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi mutafakkirlarni ijodlari kiradi. Temur tuzuklarida iqtisodiyotga, davlatni boshqarishga oid va hozirgi zamonda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan iqtisodiy muammolarni hal qilish yo’l - yo’riqlari va qoidalarini topish mumkin. Unda davlatni tarkibiy tuzilishidan tortib, davlat byudjeti daromadlari va harajatlarini shakllantirish, mehnatni taqdirlash, maosh to’lash, soliq undirish, jarimalar, in’om-u ehsonlar to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Amir Temur asarlarida davlatning iqtisodiy siyosatini asosini tashkil qilgan kategoriyalarga xazina (byudjet)ni kiritgan. Amir Temur iborasi bilan aytganda, davlatning taqdirini hal qiladigan uch narsa mavjud, ular podshoh, xazina va askar hisoblanadi. Davlatning daromadi, harajatlari, soliq, maosh (ish haqi), moddiy va ma’naviy rag’batlantirish, nafaqa, jarimalar, in’om-u ehsonlar kabilar xazinaning elementlari sifatida qaralgan. Iqtisodiy masalalarga Amir Temur alohida e’tibor bergan, uning yettita vaziridan ikkitasi maxsus ushbu masalalarga javob bergan. Bittasi egasiz qolgan mol-mulklarni tasarruf etish ishlari vaziri,

ikkinchisi, saltanatning kirim–chiqim ishlarini boshqaruvchi vazir, ya'ni moliya vaziri. «Tajribali, ishbilarmon vazirlar saltanat ustunlaridir. Ular mamlakat obodonligi, xazina boyligini doimo ko'zda tutadilar. Davlat saltanatga foyda keltiradigan ishlarni bajarishga tirishib harakat qiladi» - deb «Temur tuzuklarida» (2022) yozilgan. Amir Temur barcha davlat arboblari, xodimlari, xizmatchilariga ularni lavozimi, darajalariga qarab mehnatiga haq to'latgan. Eng asosiysi, bu masalani hal qilishda tabaqalash (differensiya) qoidasini ishlatgan. Masalan, oddiy sipohiy mingan otining bahosida, bahodirlar 2-4 ot barobarida, o'nboshi qaramog'idagi askarga nisbatan ikki barobar, yuz boshi o'n boshidan uch barobar ortiq maosh olishi belgilab qo'yilgan. Amir ul – ulomolarning maoshi o'z qo'l ostidagilardan o'n barobar ko'p bo'lishi belgilangan.

Bobilliklar va ularning shahar-davlat qo'shnilari hozirgi paytda qo'llanilayotgan fuqarolik jamiyati tushunchalari bilan taqqoslanadigan iqtisodiyot shakllarini ishlab chiqdilar. Ular sudlar, qamoqxonalar va hukumat yozuvlari bilan to'ldirilgan birinchi ma'lum kodlangan huquqiy va ma'muriy tizimlarni ishlab chiqdilar (Sheila Dow, 2005).

O'rta asrlarda hozirgi iqtisod deb ataladigan narsa tirikchilik darajasidan uzoq emas edi. Aksariyat almashinuv ijtimoiy guruh ichida sodir bo'ldi. Buning ustiga, buyuk bosqinchilar o'z qo'lga kiritishlarini moliyalashtirish uchun biz hozir venchur kapitali (*ventura*, ital.; *risk* dan) deb ataydigan narsani ko'tardilar. Kapitalni Yangi Dunyoga olib keladigan tovarlar bilan qaytarish kerak. Marko Pola (1254-1324), Kristofer Kolumb (1451-1506) va Vasko Do Gama (1469-1524) kashfiyotlari birinchi jahon iqtisodiyotiga olib keldi. Birinchi korxonalar savdo korxonalari edi. 1513-yilda Antverpenda birinchi fond birjasiga asos solingan. Iqtisodiyot o'sha paytda birinchi navbatda savdoni anglatardi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yevropa Rivojlanayotgan milliy davlatlar Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Niderlandiya bojxona to'lovlari orqali savdoni nazorat qilishga harakat qildilar va (*mercator*, lat.: merchant dan) xususiy boylik va jamoat manfaatlari o'rtasidagi oraliq vositaga birinchi yondashuv edi. Yevropadagi sekulyarizatsiya davlatlarga cherkovning ulkan mulkidan shaharlarni rivojlantirish uchun foydalanishga imkon berdi. Dvoryanlarning ta'siri pasaydi. Iqtisodiyot bo'yicha birinchi davlat kotiblari o'z ishini boshladilar. Amschel Mayer Rotshild (1773-1855) kabi bankirlar urushlar va infratuzilma kabi milliy loyihalarni moliyalashni boshladilar. Iqtisodiyot o'sha paytdan boshlab milliy iqtisodiyotni davlat fuqarolarining iqtisodiy faoliyati mavzusi sifatida anglatadi. Bu davrlar mobaynida Sharqning buyuk mutafakkirlari va olimlari ham izlanishdan to'xtashmadi. Uyg'onish davrining asoschilari sanalmish yetuk bilim sohiblari – Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Ahmad al-Farg'oniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar, o'z sohasining mutahassislari ilm-fan tarroqiyotida o'chmas iz qoldirishdi. Quyida ularning iqtisodiyot ta'limotiga qo'shgan hissalari va ularning iqtisodiy qarashlarini o'rganamiz.

Ibn Sino talqinidagi iqtisodiy qarashlar. Ibn Sino (980-1037) tomonidan nihoyatda katta ilmiy meros qoldirilgan, u yozgan asarlarning soni 280 dan ortiq. Shulardan 40 tadan ortig'i tibbiyotga oid, 30 ga yaqin risola turli tabiiy fanlarga, 3 risola musiqaga, 185 risola falsafaga, mantiq, psixologiya, teologiya, axloq, boshqa ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Lekin bizgacha uning faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan. Olimni hurmatlab, "Shayx urrais" deb ataganlar. Olimning tibbiyotga oid asarlarida iqtisodiyot bilan bog'liq muhim g'oyalar ilgari suriladi. Inson sog'lig'ining ichki va tashqi muhitga bevosita bog'liqligi, ayniqsa ovqatlanish, turmush sharoiti katta ahamiyat kasb etishi ko'rsatiladi. Iqtisodiyot fanida muhim bo'lgan kategoriya "ehtiyoj" ni ta'riflab, moddiy boyliklar yaratishda mehnatning va mehnat qurollarining o'rnini aniqlab beradi. Uning asarlarida "mehnat taqsimoti"ga katta e'tibor qaratiladi, taqsimot tufayli unumdorlik oshuvi va mahsulot sifati yaxshilanishi isbotlab berilgan. G'arbiy Yevropada faqat 1776 yilda Adam Smit bu masalaga alohida diqqatni jalb

etadi. Ibn Sinoning fikricha: "Hayvon tabiat ne'matlariga qanoat qiladi, odamlarga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, u ovqat, kiyim-kechak va uyjoyga ehtiyoj sezadi. Hayvon tabiat ne'matlarini o'zlashtirib oladi, odam esa o'z mehnati bilan o'ziga ovqat, kiyim, turar joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishi kerak". Olim asarlarida fozil davlat to'g'risidagi g'oyalar rivojlantirilib, o'zaro yordam do'stlik va hamkorlikka katta o'rin beriladi (Yo 'ldashev, 1998).

Beruniyning iqtisodiy g'oyalari. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) 150 dan ortiq asar yaratgan bo'lib, ularda mehnat boylikning asosi ekanligi to'g'risidagi g'oya yoritib beriladi. Uning ko'pgina fikr va qarashlari bugungi kun uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan. Olim yashagan davrdagi munosabatlar, ishlab chiqarishning yuksalganligi, savdo-sotiqning rivojlanishi, sug'orish inshootlarining ishga tushirilishi ana shu davr uchun xos edi. Shu asosda Beruniyda kishilik ehtiyojlarining paydo bo'lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va hunarga munosabatlari uyg'unlashib ketadi. Uning fikriga ko'ra, kishilar o'z zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashash va ishlashga majburlirlar. Ehtiyojlar turli-tuman va ko'p bo'lganligi uchun insonlar birlashgan holda turar joy va shaharlar yaratishga intiladilar, deb hisoblaydi. Shuningdek, u davlatning paydo bo'lishini ham ehtiyoj tufayli deb o'ylagan. Eng muhim g'oya shuki, barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmati uning avlod-ajdodlarining kim bo'lganligi emas, balki uning mehnati, aqliy va jismoniy mahorati bilan belgilanadi. Har bir davrning urf-odatlarini o'ziga xos bo'ladi va inson ahli ularga rioya qilmog'i darkordir, aks holda nizom va bir xillik yo'qolsa, tartib ham yo'q bo'ladi, deb uqtiradi buyuk donishmand. Olimning fikrlariga tayanib shunday muhim xulosa chiqarish mumkinki, inson yerdagi bunyodkor va yaratuvchi kuchdir. Inson avvalo halol mehnati bilan ulug'lanadi, kishilik jamiyatining asl ibtidosi ham mehnatdandir. Beruniy qayd etishicha, bilimlarni egallamoq va hunar o'rganmoq uchun mehnat qilish zarur, bu esa doim davom etadigan va takomillashib boradigan jarayondir. U mehnatni turlarga ajratib, ularning har qaysisi alohida talab va ehtiyojlar asosida vujudga kelishini ko'rsatib berdi. Binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini og'ir mehnat deb biladi. Ilm, ma'rifat zahmatkashlari mehnatiga ta'rif berish, ilm olish, o'qish eng kerakli mehnat ekanligini isbotlaydi. Shunga ko'ra olimlarning mehnatini qadrlash turli ilmlar ko'payishiga olib keladi. Olim jamiyatning asosini moddiy ne'matlar uchun bo'lgan harakatlarda, mehnatda deb biladi. Qo'l mehnati, majburiy mehnatdan erkin kishilarning faoliyati usutunligi isbotlab beriladi (erkin bozor munosabatlarining asosi). Mehnatkashlarning xohish-irodasiga qarshi, ularni majburlab ishlatishga qarshi bo'lgan, chunki bunday mehnat samarasi pastdir. Meros bo'lib avloddan avlodga o'tib keladigan hunarlar yuqori baholangan. Ana shunday qilinganda hokimiyat ham mustahkam bo'ladi, deydi olim (bu yerda davlatning iqtisodiyot bilan munosabati masalasi ko'tariladi). Agar kishilar to'q bo'lsa, davlat ham kuchlidir. Hukmdorlarning vazifasi yuqori tabaqalar bilan quyi tabaqalar o'rtasida haqiqatni, kuchli bilan kuchsiz o'rtasida tenglikni o'rnatishdan iboratdir, deb uqtiradi olim. Mehnatning ixtiyoriyligi, ozodligi, erkinligi kishilar o'rtasida hulq-atvor, hurmat-e'tibor uchun muhim va zarurdir. Bozor iqtisodiyotining eng zarur tamoyillaridan biri bu tanlash va tadbirkorlik erkinligi masalasi ilgari surilgan.

Yusuf Xos Hojib. Atoqli davlat arbobi, ilk turkiy Yusuf Xos Hojib 1020-yili qoraxoniylarning markaziy shaharlaridan biri Bolasog'unda tug'ildi (olamdan o'tgan yili noma'lum). Bo'lajak mutafakkir o'z davridagi barcha bilimlarni, arab va forsiy tillar hamda undagi adabiyotlarni puxta egallaydi. U 1069-1070-yillar orasida "Qutadg'u bilig" (qutga, ya'ni baxt saodatga erishtiruvchi bilim) asarini turk tilida yozib, qoraxoniylar hukmdori Tabg'ochxon Bug'roxonga taqdim etadi. Xon Yusufga "Xos Hojib" (eshik og'asi) degan martabani in'om etadi. Bu falsafiy didaktik asarda markazlashgan davlat tuzish, uni mustahkamlash, nizo va adolatga barham berish kabi ma'muriy- xo'jalik hamda ma'rifat, obodonchilik, moddiy-ma'naviy va boshqa adolatli hukmron, davlatni tadbir bilan boshqarish ishini o'rganish, kasb-hunar egallash, xalq g'amini yeyish haqidagi fikrlar ilgari suriladi. Bizgacha donishmandning faqat bir

asari yetib kelgan, ammo bu asarda shunday durdonalar to'planganiki, ularga qoyil qolmay iloj yo'q. Asar 13 ming misra (nasriy va nazmiy muqaddimadan tashqari)-73 bobdan iborat. Unda inson tafakkurining barcha jabhalari bo'yicha so'z yuritiladi va nihoyatda qimmatli fikrlar bayon etilgan. Kitobda berilgan bu g'oyalar o'z davri uchun ham, hozirgi davr uchun ham nihoyatda qadrilidir. Ayniqsa, iqtisodiyot masalalari bo'yicha davlat va ra'iyat munosabatlari sinchiklab o'rganilgan. Donishmand fikricha, ezgu orzularga faqat toat-ibodat bilangina yetishib bo'lmaydi. Buning uchun talay ezgu ishlar qilish, foydali faoliyat ko'rsatish kerak, degan fikrni ilgari suradi. Borliq haqidagi bilimlarga to'qnashib, odam bilishi mumkin bo'lmagan narsa, bilim bilan yechilmaydigan jumboq yo'q, bilim tufayli osmon sari ham yo'l ochiladi, deydi. Bilish uchun esa tinmasdan o'rganish lozim, deb uqtiradi. Taniqli iqtisodchi Adam Smitning iqtisodiy ta'limotga ko'ra (XVIII asr), mamlakatni iqtisodiy bo'htondan chiqarish uchun 3 narsa:

1. Tinchlik-osoyishtalik;
2. Me'yoridagi soliqlar va;
3. Iqtisodiy erkin faoliyat yuritish imkoni talab etiladi.

Ana shu g'oya aslida bizning mutafakkir tomonidan yetti asr avval bayon etilgan. Xalq, raiyat (soliq to'lovchilar) mamlakat hukmdoridan uch narsani kutadi, deb uqtiradi Yusuf Xos Hojib, bular:

- 1) pulning qadrini ko'tarish yoki (ushlab turish);
- 2) xalqqa xususiy mulk huquqini ta'minlovchi qonunlarni joriy etish va;
- 3) yo'llarni o'g'ri-qaroqchilardan muhofaza qilish.

Shoh esa fuqarolardan soliqni vaqtida to'lashni (hozirgi kunda ham nihoyatda dolzarb), chiqargan farmon qonunlarini bajarish hamda do'stiga do'st, dushmanga dushman bo'lishni talab qiladi, deb yozadi. Ko'rinib turibdiki, bunda jamiyat va siyosiy hokimiyat o'zaro mutanosib bo'lishi zarurligi g'oyasi aniq ifoda etiladi. Pulning qadrli bo'lishi haqidagi g'oya, aslini olganda inflyatsiya muammosi bilan chambarchas bog'liq, baholarning mo'tadilligi ham ta'min etiladi. U o'z navbatida inqirozsiz iqtisodiyot, erkin muomaladagi valyuta masalalariga borib taqaladi. Xususiy mulk huquqini ta'minlash bozor munosabatlarning bosh unsuridir, mulkka egallik hissi taraqqiyot omili sifatida butun jahon rivoji asosida isbotlangan va hozirgi davrda respublikamizda ham jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Davlat, umumxalq mulkiga ommoviy o'tishning salbiy oqibatlarini sobiq sho'rolar davrida boshimizdan kechirganmiz. Yo'llarni o'g'rilardan muhofaza qilish ichki va ayniqsa tashqi savdo (eksport-import) ni ta'minlash va qo'llab-quvvatlashning o'zginasidir. Bu yerda savdoning xalq xo'jaligi uchun ustuvor ahamiyati to'g'risida gap yuritiladi. Hozirgi davrda bu g'oyalar mustaqil O'zbekiston iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etadi. Bu g'oyalarning amaliy ahamiyati ayniqsa Sohibqiron Amir Temur faoliyatida yorqin namoyon bo'lgan. Yusuf Xos Hojib barcha imtiyozlardan mahrum kambag'al tabaqalar ahvoliga achinish hissini izhor qiladi. Donishmand hokimlarni quyi tabaqa vakillarini ularga nisbatan mehr shafqatli, insof-adolatli, marhamatli bo'lishiga, ayni paytda ra'iyatni hokimlarga bo'ysunuvchi, sadoqatli bo'lishiga chaqiradi. Kitobdagi g'oyalar dunyodagi hamma ishlarda qo'l keladi. Unda mulk tutishning siru-asrorlari, mamlakatni idora qilish tartibi, sharti, shuningdek, molu-mulk, el-yurtning mangu qolishi, gullab-yashnashi va uning xarob bo'lish belgilari berilgan.

Forobiy O'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarning qariyb barcha sohalarini o'z ichiga oluvchi 160 dan ortiq risola yaratgan qomusiy olim sifatida tan olinadi. Uning Sharq olamidagi shuhrati shu darajaga yetdiki, uni Aristotel (Arastu) dan keyingi yirik mutafakkir "Muallimas – Soniy" – "kkinchi muallim" deb atay boshladilar. Olimning ayniqsa "Fozil odamlar shahri" asari diqqatga sazovar bo'lib, unda mamlakatni boshqarish, hokimlar faoliyati, iqtisodiyotni olib borish bilan bog'liq bo'lgan muhim g'oyalar keltiriladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Forobiy o'z ustozlari Arastu g'oyalarini har tomonlama talqin etadi va uni to'ldirishga harakat qiladi, jamiyat shakllanishi uchun moddiy ehtiyojlarning ahamiyati haqidagi ta'limotni yaratdi, iqtisodiyot fanida muhim bo'lgan "Ehtiyoj" ni ta'riflab berdi. U

moddiy boyliklar yaratishda mehnatning va mehnat qurollari o'rnini aniqlab berdi. Ayniqsa, "mehnat taqsimoti" masalalari mutafakkir asarlarida yaxshi yoritib berilgan. Mehnat taqsimoti tufayli ishlab chiqarish rivojlanadi, chunki vaqtdan yutiladi, ishlovchilarning kasb-mahorati ortadi, texnik moslamalar kiritish uchun asos yuzaga keladi, ya'ni o'z davrida hamma ishni bir odam (usta) bajarishi mumkin bo'lgan holatdan, har bir operatsiyani maxsus kishilarga bo'lib berish afzalligi ko'rsatiladi ("qushni so'ysa ham, qassob so'ysin"). Mehnat taqsimoti to'g'risidagi g'oya taniqli iqtisodchi Adam Smit ta'limotining (XVIII asr) asosidir (Yo 'ldashev, 1998).

Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari. Navoiy shaxsning tarixdagi roliga katta e'tibor berib, mamlakat iqtisodiy ahvoli shu mamlakat hukmdorining aql-idroki va qobiliyatiga bog'liq deb hisoblaydi. Agar mamlakat hukmdori fanlarni, ayniqsa, iqtisodiyot, tarix, falsafa va siyosiy fanlarni mukammal bilsa, u boshqarayotgan mamlakat obod va badavlat bo'ladi, agar teskarisi bo'lsa, mamlakat qashshoq va xarob bo'ladi, deydi. Navoiy boshsiz tana bo'lmaganidek, podshosiz davlat ham bo'lmaydi deb tarixda realist sifatida nom qoldirdi.

A. Navoiy Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan davrda mamlakatda nisbiy rivojlanish ko'zga tashlandi. Savdo-sotiq kengaydi, hunarmandchilik va dehqonchilik yaxshi yo'lga qo'yildi. Irrigatsion inshootlar qurilishi ham kengaydi. Navoiy Markaziy Osiyo sharoiti uchun irrigatsion inshootlarni kengaytirish - iqtisodiy rivojlanishga olib boruvchi muhim omillardan biridir, deydi. A. Navoiyning bevosita rahnamoligi ostida 70 dan ortiq kanallar va ariqlar qazildi. Milliy daromadning asosiy qismini qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan hosildan olinadigan daromad tashkil etardi. Feodal jamiyatda irrigatsiya inshootlarini qurishni kengaytirish o'sha davr iqtisodiyotini rivojlantirishga keng ta'sir ko'rsatar edi. Navoiy feodalizm davrida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerni kengaytirishga, uning mahsuldorligini oshirishga katta e'tibor berdi. Navoiy boylikni ikki yo'l bilan topish mumkin, deydi. Birinchi yo'li - bu o'z mehnati bilan iqtisod qilib boylikni to'plash, orttirish, yig'ish va o'ziga to'q yashash. Bunday boylik to'plashga Navoiy hayrihohlik bildirdi. U olingan va to'plangan boylikni uch qismga bo'lib, birinchi qismini ketgan harajatga, ikkinchi qismini o'zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlari uchun sarflashga chaqiradi. Masalan, 1482-yilda yozilgan "Vaqfiya" asarida Navoiy shaxsan o'zining yerlaridan olingan daromad misolida daromadning o'z harajatlari va oila ahliga yetarli qismini olib qolib, qolgan qismini aholining foydali mehnatiga sarflashga chaqirgan. Boylik topishning ikkinchi yo'lga esa, ya'ni o'g'rilik, ta'magirlik va zo'rlik hisobiga boylik orttirishga Navoiy keskin qarshi chiqadi. U bunday ishlardan nafratlanadi va shu yo'l bilan boylik orttirayotgan kishilarni jamiyat hisobiga yashayotgan va boylik orttirayotgan parazit qatlamdir, deb ta'riflaydi (Sobirov, 1993).

Mirzo Ulug'bekning iqtisodiy islohatlari: Mirzo Ulug'bek o'zining humrdorlik, olimlik, mutafakkirlik faoliyatida ulug' bobosi vasiyatlariga, uning ko'rsatmalariga to'la asoslandi. Natijada uning 40 yillik hukmronligi davrida mamlakatda barqarorlik, tinchlik, hamjihatlik, iqtisodiy ravnaq katta ijodkorlik hukm surdi. Mirzo Ulug'bek o'z faoliyatida iqtisod ilmiga, iqtisodiyotni rivojlantirish va barqarorlikni ta'minlashga katta e'tibor qaratdi. U shunday iqtisodiy o'zgarishlar qildiki, bular oqibatida iqtisodiy inqirozlarning oldini oldi, davlat qudratini yuksak darajaga ko'tardi. Mirzo Ulug'bek iqtisodiy dunyoqarashida pul islohoti alohida o'rin tutadi. U shu maqsadda pul zarb qiluvchi korxona qurdirdi. Pul birliklarining nomini ana shu korxona joylashgan shahar-Buxoro xalq atamasi bilan atashni lozim topdi (masalan, donaki adliya, dudonaki adliya, nildonaki adliya). Pul birligining vazni pul qiymatiga qarab 2,3-8, 6 gramm og'irlikda belgilangan. Bunday iqtisodiy tadbir mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga, xalqaro savdo ravnaqiga, milliy mulkning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, iqtisodiy ta'limotlar ajdodlarimizdan meros bo'lib, mukammallashib borayotgan jarayondir. Ajdodlarimiz davridagi iqtisodiy vaziyatlarni o'rgangan holda shuni bilib olishimiz kerakki, iqtisodiyot bu mamlakatning kuchi hisoblanadi (Razzoqov va boshq., 2005).

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, iqtisodiyot zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylandi. Zamonaviy dunyoda o'zining munosib o'rnini egallay oladigan kuchli va farovon davlat yaratish uchun ilmfan va innovatsiyalarga asoslangan raqobatbardosh va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish zarur. Biz ilmiy texnika taraqqiyoti davrida, yangi moddiy va ma'naviy ne'matlarning paydo bo'lishi va ularning ayirboshlanishi bilan jamiyatning iqtisodiy o'sishini belgilab beradigan davrda yashayapmiz. Butun dunyoga tanilgan Al-Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmuluk va boshqa ko'plab mutafakkirlar yashab, ijod qilishdi. Ularning asarlarida iqtisodiy g'oyalar ham o'z aksini topganiga guvohmiz. Sharq renessansi davridagi olimlar shu davrdagi tijorat, mulkdorlik hunari sirlarini bayon etganlar. Ularning asarlaridagi umumbashariy iqtisodiy taffakkur bugungi kunda ham dolzarbligi bilan muhim o'rin tutadi. Iqtisodiyot juda keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Yuqorida guvohi bo'lganimizdek, har bir ajdodimiz o'z davrida mamlakat iqtisodiyotiga o'zining hissasini qo'shishgan. Biz yosh avlod ham xalqimiz va mamlakatimiz boy bo'lishi uchun, avvalo, o'zgarishni va rivojlanishni o'zimizdan boshlashimiz zarur. Bugungi globallashuv asrida yashar ekanmiz, harakat hech qachon to'xtamasligimiz va moliyaviy savodxonlikni oshirib borishimiz kerak. Zero, bilim va aql-idrokka, shu soha sohiblariga katta e'tibor beriladi. "Odamzod naslining ulug'ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir", deb yozadi allomalar.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

- "Temur tuzuklari" (2022) – muhim tarixiy-huquqiy manba maqolasidan.
- President.uz. (2021). Shavkat Mirziyoyev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. [online] Available at: <https://president.uz/oz/lists/view/4089>.
- Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. (2002) Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. –T.: "Moliya". 40-bet.
- Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N., Xoshimov P., Egamberdiyev F. (2005) Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. –Toshkent.
- Sheila C. Dow (2005), „Axioms and Babylonian thought: a reply“, *Journal of Post Keynesian Economics* 27 (3), p. 385-391.
- Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. (2005) Iqtisodiyot nazariyasi. –Toshkent "Fan va texnologiya".
- Sobirov X. (1993) Bizga meros tijorat.(A.Navoiy asarlarida tijorat masalalarining yoritilishi).// "Iqtisod va hisobot", 9-soni.
- Yo 'ldashev Q. (1998) Abu Ali ibn Sinoning iqtisodiy qarashlari. "Andijonnoma", 3-noyabr.
- Yo 'ldashev Q.A (1998) Abu Nasr Farobiyning iqtisodiy qarashlari. "Andijonnoma", 20-noyabr.